

TURKIY XALQLAR FOLKLORINING BILIMDONI

Abbos Tursunqulov

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘zbek
tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Maqolada folklorshunos, harbiy darajasi polkovnik bo‘lgan Cho‘qon Valixonovning nafaqat qozoq, balki turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi aniq misollar bilan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Folklorshunos, xalq og‘zaki ijodi, madaniy meros, ekspeditsiya, tarjima, ilmiy, badiiy.

ABSTRACT

In the article, the contribution of Chokhan Valikhonov, a folklorist, a military rank of colonel, to the development of the folklore of not only Kazakh, but also Turkic peoples is revealed with specific examples.

Key words: Folklorist, folklore, cultural heritage, expedition, translation, scientific, artistic.

АННОТАЦИЯ

В статье на конкретных примерах раскрывается вклад фольклориста Чохана Валихонова, воинского звания полковника, в развитие фольклора не только казахских, но и тюркских народов.

Ключевые слова: фольклорист, фольклор, культурное наследие, экспедиция, перевод, научный, художественный.

KIRISH

XIX asrdayoq Markaziy Osiyolik olimlar rus va yevropa adabiy jamoatchiligiga tanila boshladi. Shulardan biri olim, folklorshunos, harbiy darajasi polkovnik bo‘lgan Cho‘qon Valixonov edi. U nafaqat qozoq, balki turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodiga katta qiziqish bilan qaraydi. Rus maktablarida o‘qib, ta’lim olib, qozoq madaniyatini keng miqyosda targ‘ib qiladi. Rus olimlari, ijodkorlari bilan yaqindan aloqada bo‘ladi. Bor yo‘g‘i o‘ttiz yillik qisqa umri davomida ulkan ishlarni amalga oshirgan.

Ch.Valixonov bor yo‘g‘i o‘ttiz yil umr ko‘rgan bo‘lsa ham (1835-1865) davrida O‘rta O‘syo va Qozog‘iston xalqlari madaniyati tarixining yirik tadqiqotchisi sifatida g‘oyatda boy madaniy meros qoldirdi. Uning butun ijtimoiy-siyosiy, imiy va adabiy faoliyati xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni barqaror qilishga, madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratildi.

Otasi Chingiz Valixonov Ko‘kchatov okruginig sultoni vazifasini bajargan bo‘lsa ham, o‘z davrining a’rifatparvar va o‘qimishli xokimlaridan edi. Shu sababli ham Cho‘qonning yoshlik davridan boshlab bilim olishiga, rus va yevropa tillarini, madaniyatini, adabiyotini o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Cho‘qon dastlab Qushmurundagi shaxsiy qozoq maktabida va u yerda arab yozuvini o‘rgandi.

1847 yilda Omskka kelib sibir kazetlar korpusiga o‘qishga kirdi va bu yerda rus revalutsion demokratlari – Belinskiy, Gersen asarlarini o‘qib demokratik g‘oyalari bilan tanishdi. Bundan tashqari bilim yurtida geografiya, tarix, zoologiya, fizika, matematika, botanika, geodeziya, filologiya, rasm, hattotlik, shuningdek, falsafa, rus, fransuz, nemis, turk, mongol, arab, fors tillari ham o‘rgatilar edi. Tabiatian tarashqoq va qobiliyatlari bo‘lgan Cho‘qon 1853 yilda kazetlar korpusini muvaffaqiyatli tugallaydi va shu davrdan boshlab uning adabiy faoliyati boshlanadi.

Ch.Valixonov 1855 yildan boshlab, general Gasford boshchiligidida Markaziy Qozog‘istonda uyushtirilgan ekspeditsiyasida ishtirok etib, qozoq xalqining tarixi, urfatlari va maishiy turmush tarzi bilan bog‘liq g‘oyatda boy adabiy manbalar to‘playdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1856 yildan boshlab yirik harbiy-ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan Ch.Valixonov Issiqko'l va Markaziy Tyan-Shanda yashaydigan qirg'iz ovullarida xalq oqinlaridan, jarchilaridan epik poemalar, afsonalar, ertaklar yozib oldi. U qirg'iz xalqining qomusi bo'lgan "Manas" eposini birinchi bo'lib ilmiy asosda yozib oldi va rus tiliga tarjima qildi. Shuningdek, hali yevropa xalqlari unchalik tanish bo'limgan bu eposni "Iliada" va "Odiseya" bilan tenglashtirib, fanda birinchi marta tarixiy-adabiy jihatdan tahlil etdi.

Cho'qon Valixonov Yevropa sharqshunoslari orasida yosh, kelajagi porloq, bilimdon, izlanuvchan olim sifatida tan olindi. O'sha davrning yirik olimlari va adiblari bo'lmish G.N.Potyanin, V.I.Lomanskiy, shoir S.F.Durovlar g'oyatda yuqori baholadilar va uning ilmiy ishlaridagi yangiliklarni o'z vaqtida e'tirof etdilar.

Uning ilmiy va adabiy faoliyati bilan tanishgan buyuk rus yozuvchisi M.Dostoevskiy unga katta xayrixohlik bilan qaraydi va shoir S.F.Durovning yordamida u bilan tanishib, do'st bo'lib qoladilar. Ch.Valixonov do'sti Dostoevskiyga yozgan xatlaridan birida shunday deydi: "Men insonning kayfiyati haqida yozishga usta emasman, lekin ishonamanki siz albatta bilasiz men qanchalik sizni hurmat bilan sevaman". Dostoevskiyning Cho'qonga yozgan xatida bu hurmat va ehtiromga yarasha g'oyatda nozik did bilan javob berilganligi ko'rindi. Dostoevskiy o'z yuragini ochib shunday deydi: "Siz meni yaxshi ko'raman deb yozibsizb, Men sizga hayqirmasdan aytishim lozimki, men Sizni yaxshi ko'raman. Men hech kimga, hatto tutingan akalarimga ham Sizchalik hush kayfiyatda bo'limganman". Dostoevskiy hamisha, xoh shaxsiy uchrashuvlarda, xoh xat orqali yozishmalarda bo'lsin doimo Cho'qonga maslahat berib, ona yurtga sitqidildan xizmat qilishni, turkiy xalqlar tarixini, etnografiyasini, og'zaki va yozma ijodini o'rganishni iltimos qiladi, uning burchi ekanligini har doim uqtiradi.

NATIJALAR

1858-1859 yillarda Qulji va Qoshg‘arda uyushtirilgin ekspeditsiyada ishtirok etib O‘rta Osiyo xalqlari - o‘zbeklar, tojiklar, uyg‘ular, qirg‘izlarning ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, turmush tarzi, ularning odatlari haqida so‘z yuritadi.

1864 yilda Janubiy Qozog‘istonni Rossiyaga qo‘shib olish uchun uyushtirilgan harbiy ekspeditsiyaga taklif etiladi va “Avliyo ota” qal’asi uchun olib borilgan jangda ishtirok etadi. General Chernyaevning qattiqko‘lligida va ... siyosatidan norozi bo‘lgan bir guruh ofitserlar bilan Ch.Valixonov ham ekspeditsiyada ishtirok etishdan bosh tortadi. 1865 yilda uning sog‘ligi yomonlashib vafot yetadi.

Ch.Valixonov qisqa, lekin mazmundor hayot kechirdi. XIX asr O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari hayotini, tarixini, madaniyatini har tomonlama keng ko‘lamda o‘rgangan olim sifatida boy adabiy meros qoldirdi. Qozog‘iston Fanlar akademiyasining tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Ch.Valixonov nomi bilan ataladi.

Ch.Valixonov turkiy xalqlar og‘zaki ijodning nodir namunalarini to‘plagan va ilmiy jamoatchilikka ma’lum etgan olim sifatida folklorshunoslik fanida o‘z o‘rniga ega.

O‘zi voyaga yetgan zaminda katta adabiy muhit bor edi. Buvisi Oyxonim xalq og‘zaki ijodini yaxshi bilgan donishmand ayollardan bshlib, og‘zaki ijodning sehrli sirlarini Cho‘qonga singdirishga harakat qildi. Cho‘qonni dastlab xalq donishmandligi, urf-odatlari bilan tanishtirgan ham buvisi Oyxonim edi.

Ch.Valixonov o‘qish davrida ham, undan keyingi faoliyatida ham xalq og‘zaki ijodini to‘plashga alohida e’tibor berdi. U hali bolalik davridayoq qozoq xalqining yirik eposlaridan bo‘lgan “Ko‘zi Ko‘rgash” va “Bo‘yoqsuluv” ni yozib olgan edi.

Keyinchalik ham qozoq, qirg‘iz xalqlari og‘zaki ijodini to‘plashga ham alohida e’tibor berdi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, u qirhiz xalqining qomusiy asari bo‘lgan “Manas” eposining variantini birinchi marta ilmiy asosda o‘rgandi va rus tiliga tarjima qildi. Uni tahlil qilib, “Cho‘l iliadasi” deb baholadi. “Salibey” eposini “Burgutlar Odieyasi” deb ta’rifladi.

MUHOKAMA

Ch.Valixonov tomonidan yozib olingan “Manas”ning varianti fanda o‘ziga xos originalligi va yagonaligi bilan alohida ahamiyatga ega. Qisqacha mazmunini keltirgan bu variant quyidagidan iborat: Jaqin o‘g‘li Manasga suluv Xonikeyni olib berish uchun qoraxonnikiga sovchi bo‘lib boradi. Lekin qoraxon qizi Xonikeyni Jaqinning o‘g‘li Manasga berishni istamaydi. Tahqirlangan Manas Xonikeyni zo‘rlik bilan oladi. Ko‘katoynikida bo‘lgan munozara-tortishuvda zo‘rlik va adolatsizlik ko‘rsatgan qo‘ng‘irboy bilan Jo‘laylarni Manas o‘ldiradi. So‘ngra Manas ham kasal bo‘lib o‘ladi.

XIX asrning o‘rtalarida va XX asrning boshlarida turkiy xalqlar eposi yeng rivojlangan davr edi. Shuning uchun Ch.Valixonov yozib olgan og‘zaki ijod namunalari o‘zining o‘zining qadimiyligini saqlagan holda yetib kelganligi va o‘z vaqtida yozib olinganligi bilan qimmatlidir.

Ch.Valixonov “Manas” variantini yozib, bu variantning rus tilida Veselovskiy tomonidan qilingan tarjimasi hozircha yagona nusxa sifatida alohida ahamiyatga ega.

“Manas” eposi bilan bog‘liq ishlarida “Manas” eposining turkiy xalqlar orasida tutgan ahamiyatini alohida ta’kidlagani holda uning tarqalish jarayoni haqida ham qiziqarli faktlar bayon etadi. U Manas asosida qilinajak voqealarning bir qismi Toshkent, Andijon, Farg‘ona tomonlarda ro‘y bergenligini aytadi. Shu bilan birga Andijon tarafda yashaydigan qirg‘izlar orasida “Manas” eposi keng tarqalganligi to‘g‘risida fikr yuritadi. Olimning bu fikri zamirida o‘zbek baxshilari repertuarida ham “Manas” eposining variantlari mavjud degan farazni ilgari suradi.

Ch.Valixonov qozoq xalqining “Ko‘zi Kurash” va “Boyonsuluv” eposidan parcha yozib olgan. Bu eposning 16 ta varianti mavjud yekanligi haqida qozoq olimlari ma’lumot beradilar. Lekin Valixonov yozib olgan variant o‘zining qadimiyligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Ch.Valixonov tomonidan yozib olingan qozoq xalqi maqollari turkiy xalqlar donishmandligining yorqin namunasidir:

O‘tkir pichoq qinga xos

Shtrik so‘z jonga xos.

O‘lgan arslondan

Tirik it yaxshi.

Shoshma qarg‘a.

Tushasan jarga.

Uyqu jonning tinchi,

Imon (vijdon) jonning quvonchi.

Ch.Valixonov faqat xalq og‘zaki ijodining to‘plovchisigina bo‘lib qolmay, bilimdon tadqiqotchisi hamdir. U qozoq poeziyasining formalari haqida fikr yuritib, ularni quyidagi qismlarga klassifikatsiya qiladi:

1. Jar;
2. Yig‘lov;
3. Qaim – aytishuvning bir turi;
4. Qora o‘lan – to‘rtliklardan iborat bo‘lib, turli tarixiy epizodlarni tashkil qiladi.
5. O‘lan;

Olim xalq poeziyasining bu jihatlarining har biri haqida to‘xtalib, ularni o‘zlariga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xullas, Ch.Valixonov folklorshunos sifatida fan uchun g‘oyatda qimmatli meros qoldirdi. Olim tomonidan to‘plangan folklor asarlari turkiy xalqlar og‘zaki ijodini eng rivojlangan va birinchi marta bir davrda yozib olinganligi bilan qimmatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Cho%CA%BBqon_Valixonov
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. –T: O‘zbekiston, 2000 yil.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –T: Sharq, 2010 yil.